

# VIRTUAL MUZEYLAR VOSITASIDA TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH: EKSPERIMENTAL YONDASHUV

## DEVELOPING HISTORY TEACHERS' PROFESSIONAL COMPETENCIES THROUGH VIRTUAL MUSEUMS: AN EXPERIMENTAL APPROACH

### РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ ЧЕРЕЗ ВИРТУАЛЬНЫЕ МУЗЕИ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ ПОДХОД

To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi

Qo'qon DPI tayanch doktoranti

[toranazarovamuxlisa@gmail.com](mailto:toranazarovamuxlisa@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada virtual muzeylardan foydalanish orqali tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Eksperimental yondashuv asosida olib borilgan tadqiqot natijalari tahlil qilinib, virtual ta'lim muhitining o'qituvchilar malakasini oshirishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** virtual muzey, tarix fani, malaka oshirish, kompetensiya, eksperiment.


**Annotation.** The article highlights the issues of developing history teachers' professional competencies through the use of virtual museums. Based on an experimental approach, the study analyzes the effectiveness of virtual learning environments in improving teachers' qualifications.

**Keywords:** virtual museum, history education, professional development, competence, experiment.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы развития профессиональных компетенций учителей истории через использование виртуальных музеев. На основе экспериментального подхода анализируется эффективность виртуальной образовательной среды в повышении квалификации педагогов.

**Ключевые слова:** виртуальный музей, история, повышение квалификации, компетенция, эксперимент.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish tarix fani o'qituvchilarining kasbiy o'sishida muhim omilga aylandi. Xususan, virtual muzeylardan foydalanish o'qituvchining metodik, axborot-kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi – virtual



muzeylar asosida tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish tajribasini ilmiy tahlil qilishdan iborat. UNESCO (2023) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida o'qituvchilarning 72 foizi dars jarayonida kamida bitta raqamli vositadan foydalanadi, biroq ularning atigi 38 foizi o'zining pedagogik faoliyatida mustaqil ravishda original raqamli kontent yaratadi. Bu ko'rsatkich tarix fanida yanada past bo'lib o'qituvchilarning faqat 26–28 foizi dars mazmuniga mos multimedia, virtual ekskursiya yoki interfaol xarita kabi maxsus o'quv resurslarini ishlab chiqish kompetensiyasiga ega. Raqamli kontent yaratish kompetensiyasi zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchidan nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki pedagogik dizayn, ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati, tarixiy manbalarni tanlash va ularni raqamli formatga moslashtirish bo'yicha yuqori darajadagi malakani talab etadi. Shu nuqtai nazardan, tarix o'qituvchilarining raqamli kontent yaratish qobiliyati – ularning umumiy raqamli savodxonligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi<sup>1</sup>.


OECD (2022) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida o'zining ishlab chiqqan raqamli materiallaridan foydalanadigan o'qituvchilar o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini o'rtacha 18 foizga oshiradi. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashmoqda. Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va o'qituvchilarni AKT sohasida qayta tayyorlash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2024-yilgi hisobotida qayd etilishicha, umumta'lim maktablari tarix o'qituvchilarining 64 foizi AKTdan dars o'tishda foydalanadi, biroq ulardan faqat 22 foizi mustaqil ravishda o'zining original raqamli o'quv kontentini ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Bu esa, mavjud infratuzilma, texnik jihozlar, o'qituvchilarning kasbiy malakasi va motivatsiyasi bilan bog'liq tizimli masalalarni hal qilish zaruratini ko'rsatadi<sup>2</sup>.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston olimlari tomonidan so'nggi yillarda virtual ta'lim, raqamli texnologiyalar va malaka oshirish tizimini takomillashtirish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, B. Xodjayev (2022) raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchilar malakasini oshirish tajribasini o'rgangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini raqamlashtirishga oid qarorlari ushbu yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Virtual muzeylar va yuqori texnologiyalar bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron ommaviy axborot vositalarining integratsiyasi virtual haqiqatning dastlabki bosqichini shakllantirib, uni ijtimoiy fanlar ta'limiga xalqaro miqyosda tatbiq etish imkonini bermoqda. Ingliz tilida "virtual muzey" tushunchasi raqamli muzey, onlayn muzey, elektron muzey, gipermedia muzeyi, veb-muzey kabi turli iboralar bilan ifodalanadi. Bu atamalarning barchasi mohiyatan bir xil mazmunga ega bo'lib, madaniy meros institutlarining raqamli media orqali jamoatchilikka saqlash, ta'lim berish va tadqiqot xizmatlarini taqdim etishda zamonaviy kompyuter tarmoqlari texnologiyalaridan foydalanishini ta'kidlaydi. Aslida, virtual muzeylar ma'lumotlarni saqlash, ommaga taqdim etish va ularning to'plamlarini kengaytirish jarayoniga o'xshash tsiklni tashkil etadi.

"Virtual muzey" tushunchasiga rasmiy ta'rif berilishidan avval, 1992 yilda Glenn Xopman, 1993 yilda Dominik DeLouis va 1994 yilda Maksvell Anderson ushbu mazmunga yaqin iboralardan foydalangan. Faqatgina 1996 yildan boshlab Jeffri Lyuis Britannica

<sup>1</sup> G'aniyev Sh. R. TARIX O'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KONTENT YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar. VII Respublika anjumani materiallari to'plami. 1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil) <https://konferensiyalar.com/index.php/4d>.

<sup>2</sup> Azimova T. E. OLIY TA'LIMDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //University Research Base. – 2024. – C. 406-408.



entsiklopediyasida “virtual muzey” tushunchasiga kengroq ta’rif bergan. Unga ko’ra, virtual muzey — bu rasmlar, tovushlar, matnli hujjatlar va tarixiy, ilmiy yoki madaniy ahamiyatga ega boshqa ma’lumotlardan iborat to’plam bo’lib, ular raqamli shaklda qayd etiladi va elektron ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etiladi. Virtual muzeylar an’anaviy muzeylarda bo’lgani kabi doimiy, moddiy ob’ektlar to’plamini saqlamaydi<sup>3</sup>.

**Nazariy qism.** Virtual muzeylar o’quv jarayonida tarixiy voqealarni ko’rgazmali, interaktiv tarzda o’rganish imkonini beradi. Bu jarayonda o’qituvchi virtual muhitda tarixiy manbalarni tahlil qilish, ularni o’quvchilarga to’g’ri talqin etish, hamda mustaqil izlanish faoliyatini yo’lga qo’yish imkoniyatiga ega bo’ladi. Pedagogik nuqtayi nazardan, bu yondashuv o’qituvchilarda kreativlik, axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati va kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantiradi.

**Takliflar va tajribaviy natijalar.** Eksperimental yondashuv asosida Qo’qon davlat universiteti huzuridagi malaka oshirish kurslari tinglovchilari bilan o’tkazilgan tajriba jarayonida virtual muzeylar asosida tashkil etilgan mashg’ulotlarning samaradorligi o’rganildi. Tajriba natijalariga ko’ra, o’qituvchilarning axborot-kommunikativ kompetensiyasi 35%, metodik yondashuv malakalari esa 30% ga o’sdi. Bu natijalar virtual muzeylardan foydalanish tarix o’qituvchilarining kasbiy o’sishiga sezilarli ta’sir ko’rsatishini ko’rsatdi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, virtual muzeylar tarix fani o’qituvchilari uchun samarali ta’lim vositasi sifatida ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Mazkur yondashuv o’qituvchilarning innovatsion fikrlashini rag’batlantiradi, dars jarayonini boyitadi hamda ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llashga tayyorlaydi. Kelgusida malaka oshirish kurslari dasturlarida virtual muzeylar bilan ishlash bo’yicha maxsus modullarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G’aniyev Sh. R. Tarix o’qituvchilari uchun raqamli kontent yaratish kompetensiyasini rivojlantirish yo’llari. Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g’oya va yechimlar. VII Respublika anjumani materiallari to’plami. 1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil) <https://konferensiyalar.com/index.php/yd>.
2. Azimova T. E. Oliy ta’limda elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning ahamiyati //University Research Base. – 2024. – C. 406-408.
3. Mavlonov N.Sh., Xalilayev B.T (2024). Malaka oshirish jarayonida direktorlarning raqamli texnologiyalardan foydalanishda mustaqil qobiliyatlarini rivojlantirish. «Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024 yil 23-24 may
4. 孙丹妮（中央美术学院人文学院硕士研究生）原文发表于《美术》2020年第6期
5. Xaitova S. T., G’ulomjonova Z. K. Malaka oshirish tizimi tinglovchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning o’ziga xos jihatlari. International scientific-practical conference “preschool education: quality and efficiency, development perspectives”, december 4-5, 2024

<sup>3</sup> 孙丹妮（中央美术学院人文学院硕士研究生）原文发表于《美术》2020年第6期